

Xorazm Viloyatida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi


2025-yil yanvar- dekabr oylari uchun

- I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi
- II. Xorazm viloyatining qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida
- III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish
- IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni
- V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilning yanvar- dekabr oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 34 643,0 mlrd so'mni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 33 384,5 mlrd so'mni, o'rmon xo'jaligi – 359,8 mlrd so'mni, baliqchilik xo'jaligi – 898,7 mlrd so'mni tashkil qildi.

Xorazm viloyatida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o'sish sur'ati



II. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Urganch (3937,2 mlrd so'm), Qo'shko'pir (3571,3 mlrd so'm), Xonqa (3460,8 mlrd so'm), Shovot (3440,1 mlrd so'm), Gurlan (3378,8 mlrd so'm) va Bog'ot (3302,1 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Hazorasp tumani (2998,1 mlrd so'm), Yangibozor tumani (2890,9 mlrd so'm), Yangiariq tumani (2839,5 mlrd so'm) va Tuproqqal'a tumanini (957,7 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.



	Hajm mlrd so'm	O'sish sur'ati % da
Xorazm viloyati	34 643.0	104,9
Urganch shahri	711,6	102,8
Xiva shahri	108,3	106,2
Bog'ot tumani	3 302,1	107,6
Gurlan tumani	3 378,8	106,1
Qo'shko'pir tumani	3 571,1	102,9
Urganch tumani	3 937,2	104,2
Hazorasp tumani	2 998,1	105,0
Tuproqqal'a tumani	957,7	102,8
Xonqa tumani	3 460,8	105,0
Xiva tumani	3 046,7	105,6
Shovot tumani	3 440,1	104,3
Yangiariq tumani	2 839,5	104,5
Yangibozor tumani	2 890,9	104,6

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati tahlil qilinganda, yuqori o'sish sur'atlari Bogot (107,6 %), Gurlan (106,1 %), Xiva (105,6 %), Hazorasp va Xonqa (105,0 %) tumanlarida qayd etildi.

Boshqa hududlarga nisbatan Shovot (104,3 %), Urganch (104,2 %), Qo'shko'pir (102,9 %), Tuproqqal'a (102,8 %), tumanlarida esa aksincha, o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish


2025-yilning yanvar- dekabr oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 32 545,8 mlrd so'mni yoki 2024-yilning mos davriga nisbatan 104,9 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 14 160,8 mlrd so'mni (109,7 %), chorvachilik mahsulotlari 18 385,0 mlrd so'mni (100,9 %) tashkil qildi.

Hududlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Urganch (3 781,7 mlrd so'm), Qo'shko'pir (3 329,6 mlrd so'm), Xonqa (3 324,2 mlrd so'm) va Shovot (3 312,3 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Xiva tumani (2 760,7 mlrd so'm), Yangiariq tumani (2 558,3 mlrd so'm) va Tuproqqal'a tumanini (879,3 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Bogot (107,4 %), Gurlan (106,4 %), Xiva (105,8 %), Hazorasp (105,4 %) tumanlarida qayd etildi. Tuproqqal'a (103,9 %) va Qo'shko'pir (103,3 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 69,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 23,5 % i fermer xo'jaliklariga, 7,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish

2025-yilning yanvar- dekabr oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlari hajmi 14 160,8 mlrd so'mni yoki 2024-yilning mos davriga nisbatan 109,7 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida dehqonchilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Urganch (1653,9 mlrd so'm), Bogot (1 538,0 mlrd so'm), Gurlan (1 487,7 mlrd so'm), Xonqa (1 448,9 mlrd so'm) va Xiva (1 433,8 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Hazorasp (1 037,0 mlrd so'm), Yangiariq (887,7 mlrd so'm) va Tuproqqal'a (465,4 mlrd so'm) tumanlarini keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Bogot (113,8 %), Gurlan (112,4 %) Hazorasp (111,7 %) va Yangiariq (111,5 %) tumanlarida qayd etildi. Urganch (107,9 %), Qo'shko'pir (106,7 %) va Tuproqqal'a (105,3 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

2025-yilning yanvar- dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 724,2 ming tonna donli ekinlar (2024-yilning yanvar- sentabrga nisbatan 23,9 % ga ko'p), 163,2 ming tonna kartoshka (2,8 % ga ko'p), 737,1 ming tonna sabzavotlar (2,2 % ga ko'p), 196,6 ming tonna poliz ekinlari (10,2 % ga ko'p), 189,9 ming tonna meva va rezavorlar (5,8 % ga ko'p), 55,1 ming tonna uzum (7,0 % ga ko'p) yetishtirildi.

Yetishtirilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari

	Yanvar- sentabr 2025-y.	O'sish sur'ati, % da
Donli ekinlar, ming tonna	724,2	123,9
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	444,6	107,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	234,2	171,7
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	45,4	138,0



Kartoshka, ming tonna	163,2	102,8
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	41,5	106,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	116,1	98,8
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	5,5	2,8m
Sabzavotlar, ming tonna	737,1	102,2
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	148,1	110,8
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	550,2	98,1
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	38,8	144,4
Poliz ekinlari, ming tonna	196,6	110,2
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	97,9	107,2
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	85,2	109,5
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	13,5	145,3
Meva va rezavorlar, ming tonna	189,9	105,8
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	73,3	111,7
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	111,2	101,1
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	5,4	141,9
Uzum, ming tonna	55,1	107,0
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	15,0	113,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	37,4	101,8
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2,7	1,7 m

2025-yil yanvar- dekabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, donli ekinlar yetishtirishning 61,4 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 32,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 6,3 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.



**2025-yil yanvar- dekabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi
dehqonchilik mahsulotlari (ming tonna)**

	<i>Donli ekinlar</i>	<i>Kartoshka</i>	<i>Sabzavotlar</i>
Xorazm viloyati	724,2	163,2	737,1
Urganch shahri	1,3	1,1	2,0
Xiva shahri	0,3	0,8	4,2
Bog'ot tumani	70,5	14,8	69,7
Gurlan tumani	105,0	13,1	53,5
Qo'shko'pir tumani	56,6	8,6	90,5
Urganch tumani	75,4	23,4	90,9
Hazorasp tumani	54,5	9,9	43,3
Tuproqqal'a tumani	36,5	3,0	15,4
Xonqa tumani	84,5	21,3	70,4
Xiva tumani	52,8	15,3	109,4
Shovot tumani	75,3	21,5	66,4
Yangiariq tumani	44,6	14,2	54,7
Yangibozor tumani	67,0	16,4	66,5

Shunga mos ravishda kartoshkaning 25,4 % i fermer xo'jaliklariga, 71,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 3,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, shuningdek, sabzavotlarning 20,1 % i fermer xo'jaliklariga, 74,6 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 5,3 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, poliz ekinlarining 49,8 % i fermer xo'jaliklariga, 43,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 6,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, meva va rezavorlarning 38,6 % i fermer xo'jaliklariga, 58,6 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 2,9 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, uzum 27,2 % i fermer xo'jaliklariga, 67,8 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 5,0 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.



2025-yil yanvar- dekabr oylarida yetishtirilgan ayrim turdagi dehqonchilik mahsulotlari hajmi (ming tonna)

	<i>Poliz ekinlari</i>	<i>Meva va rezavorlar</i>	<i>Uzum</i>
Xorazm viloyati	196,6	189,9	55,1
Urganch shahri	0,9	0,5	0,3
Xiva shahri	0,1	0,4	0,2
Bog'ot tumani	19,1	20,1	17,7
Gurlan tumani	10,8	9,7	1,7
Qo'shko'pir tumani	18,5	17,2	1,9
Urganch tumani	25,1	19,0	9,0
Hazorasp tumani	11,3	17,0	4,2
Tuproqqal'a tumani	6,4	5,5	1,0
Xonqa tumani	15,6	17,3	4,8
Xiva tumani	24,1	23,8	3,6
Shovot tumani	26,2	26,3	3,0
Yangiariq tumani	13,4	16,0	1,7
Yangibozor tumani	25,3	17,1	6,0

Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish

Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Urganch (2 127,8 mlrd so'm), Qo'shko'pir (1 951,8 mlrd so'm), Shovot (1 938,0 mlrd so'm), Xonqa (1 875,3 mlrd so'm), Gurlan (1 764,6 mlrd so'm), Hazorasp (1 752,8 mlrd so'm) va tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Bogot tumani (1 547,5 mlrd so'm), Yangibozor (1 405,0 mlrd so'm), Xiva tumani (1 327,0 mlrd so'm) va Tuproqqal'a tumanini (413,9 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Tuproqqal'a (102,0 %), Xiva (101,8 %), Hazorasp (101,4 %), Gurlan va Yangiariq (101,1 %) tumanlarida qayd etildi. Urganch (100,8 %), Qo'shko'pir va Shovot (100,7 %), Xonqa (100,4 %) esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

2025-yilning yanvar- dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 194,2 ming tonna go'sht, 1150,6 ming tonna sut, 522,6 mln dona tuxum, 1 301 tonna qirqib olingan jun, 11,6 ming dona qorako'l teri yetishtirildi va 35,9 ming tonna baliq ovlandi. Hisobot davrida tirik vaznda yetishtirilgan go'sht hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 101,1 % ni, sog'ib olingan sut – 101,2 % ni, olingan tuxum – 108,4 % ni, qirqib olingan jun – 103,4 % ni, olingan qorako'l teri – 102,9 % ni hamda ovlangan baliqlar – 103,3 % ni tashkil qildi.



**2025-yil yanvar- dekabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi
chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliq**

	Yanvar-iyun 2025-y.	O'sish sur'ati % da
Go'sht (tirik vaznda), ming tonna	194,2	101,1
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	11,2	146,9
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	164,3	98,0
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	18,7	110,9
Sut, ming tonna	1150,6	101,2
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	86,5	130,5
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1049,6	98,5
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	14,5	262,2
Tuxum, mln dona	522,6	108,4
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	64,2	125,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	346,1	101,8
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	112,3	123,8
Jun, tonna	1301	103,4
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	211,0	112,8
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1044,0	101,1
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	46,0	121,1
Qorako'l teri, ming dona	11,6	102,9
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	1,3	114,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	10,1	101,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	0,2	121,3
Baliq, ming tonna	35,9	103,3
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	24,3	104,3
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1,5	100,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	10,1	101,4



2025-yil yanvar- dekabr oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan go'shtning umumiy hajmidan 5,8 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 84,6 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 9,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

Shunga mos ravishda sog'ib olingan sutning 7,5 % i fermer xo'jaliklari, 91,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 1,3 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

Shu bilan birga, olingan tuxumning 12,3 % i fermer xo'jaliklariga, 66,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 21,5 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

Shuningdek, qirqib olingan junning 16,3 % i fermer xo'jaliklari, 80,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 3,5 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

Bundan tashqari, olingan qorako'l terining 11,4 % i fermer xo'jaliklariga, 86,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

O'z navbatida, ovlangan baliqlarning 67,6 % i fermer xo'jaliklariga, 4,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 28,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelganligini qayd etish lozim.

2025-yil yanvar- sentabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar (ming tonna)

	Go'sht <i>(tirik vaznda)</i>	Sut	Tuxum, <i>mln dona</i>	Baliq
Xorazm viloyati	194,2	1150,6	522,6	35,9
Urganch shahri	7,5	8,2	2,6	0,0
Xiva shahri	0,6	7,2	3,9	0,0
Bog'ot tumani	16,4	87,8	59,7	3,5
Gurlan tumani	17,4	116,3	38,6	1,1
Qo'shko'pir tumani	27,9	116,4	32,0	3,9
Urganch tumani	21,3	138,7	79,1	1,0
Hazorasp tumani	16,4	128,6	44,5	3,2
Tuproqqal'a tumani	4,3	25,2	10,9	1,1
Xonqa tumani	17,9	126,7	104,0	1,3
Xiva tumani	12,9	92,3	50,6	7,0
Shovot tumani	20,0	117,8	32,6	3,0
Yangiariq tumani	17,8	92,9	36,9	9,9
Yangibozor tumani	13,9	92,4	27,2	0,9



IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2026-yilning 1-yanvar holatiga barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 996,0 ming boshga yetdi (2025-yilning 1-yanvar holatiga nisbatan 1,9 % ga ko'p), sigirlar 375,6 ming boshga (1,4 % ga ko'p), qo'y va echkilar 508,6 ming boshga (0,5 % ga ko'p), parrandalar 8 006,9 ming boshga (109,5 % ga ko'p) yetdi.

2026-yilning 1-yanvar holatiga xo'jaliklar toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Ming bosh	O'sish sur'ati
Yirik shoxli qoramollar	995,9	101,9
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	89,6	107,3
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	883,9	100,7
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	22,4	140,7
shundan sigirlar	375,5	101,4
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	40,1	110,2
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	325,2	99,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	10,2	155,7
Qo'y va echkilar	508,6	100,5
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	97,0	103,7
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	381,0	100,9
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	30,6	88,5
Otlar	5,5	97,1
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	0,9	103,5
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	4,5	95,5
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	0,1	114,5
Parrandalar	8001,3	109,4
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	1538,2	125,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	3734,2	100,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2728,9	115,8



2026-yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 9,0 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 88,8 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 2,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda sigirlarning umumiy sonidan 10,7 % i fermer xo'jaliklariga, 86,6 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 2,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, shuningdek, qo'y va echkilarning umumiy sonidan 19,1 % i fermer xo'jaliklariga, 74,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 6,0 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, parrandalar umumiy sonidan 19,2 % i fermer xo'jaliklariga, 46,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 34,1 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

**2026-yilning 1- yanvar holatiga hududlar kesimida
chorva mollari va parrandalar bosh soni (ming bosh)**

	Yirik shoxli qoramollar	shundan, sigirlar	Qo'y va echkilar	Parrandalar
Xorazm viloyati	995,9	375,5	508,6	8001,3
Urganch shahri	6,4	2,3	2,2	42,7
Xiva shahri	17,0	3,5	12,7	46,7
Bog'ot tumani	89,8	29,4	66,8	775,9
Gurlan tumani	98,2	39,9	19,5	648,2
Qo'shko'pir tumani	94,3	37,9	93,7	699,6
Urganch tumani	117,8	46,9	57,0	979,1
Hazorasp tumani	90,6	39,5	61,8	715,1
Tuproqqal'a tumani	21,8	9,3	25,7	116,5
Xonqa tumani	125,3	39,5	30,5	1001,6
Xiva tumani	73,4	31,1	27,9	958,7
Shovot tumani	98,9	34,4	43,8	828,8
Yangiariq tumani	76,1	30,8	45,1	630,7
Yangibozor tumani	86,3	31,0	21,9	557,7



V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarish hajmi – sohada o'z iste'moli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xo'jaligida, o'rmonchilik va yog'och tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Fermer xo'jaligi – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektidir.

Dehqon xo'jaligi – meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish yoki ijara (ikkilamchi ijara) huquqi asosida dehqon xo'jaligi boshlig'iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni va realizatsiya qilishni dehqon xo'jaligi a'zolarining mehnati asosida amalga oshiruvchi xo'jalikdir.

Tomorqa xo'jaligi – shaxsiy tomorqa yer uchastkalarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ham erkin savdo uchun, ham oila ehtiyojlari uchun yetishtirish (qayta ishlash) bilan bog'liq mehnat faoliyatidir.

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yerga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Mollar bosh soni – xo'jalik toifalari bo'yicha barcha yosh guruhlaridagi asosiy turdagi chorva mollarini o'z ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qo'y va echkilar, cho'chqalar va h.k.)

Go'sht yetishtirish – so'yish uchun sotilgan hamda o'z xo'jaligida so'yilgan barcha turdagi qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini o'z ichiga oladi.

Sut yetishtirish – yosh mollarga ichirish uchun sog'ib olingan sut va og'iz sutini qo'shgan holda, haqiqatda sog'ib olingan sigir, echki, qo'y, biya va tuya sultari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi sog'ib olishga kiritilmaydi.

Tuxum yetishtirish – barcha turdagi parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorlarda jo'ja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini o'z ichiga oladi.

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/qishloq-xo-jaligi-va-ekologiya/685-qishloq-o-rmon-va-baliqchilik-xo-jaligi-mahsulot-xizmat-lari-yalpi-ishlab-chiqarishini-hisoblash-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Qishloq xo'jaligi va atrof-muhit
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
T. Xodjayev
6222 4-64-96 (9110)

Manzil:

